

## OFITSER-O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI FAOLIYATIDA MUOMALA VA MULOQOT MADANIYATI

**Nazarov Tohir Toshpo'lotovich**  
Buxoro davlat Pedagogika instituti  
Harbiy ta'lif fakulteti  
maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, dotsent.

### ANNOTATSIYA

Kasbiy pedagogik muloqot ofitser-o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorlik tizimi sifatida asosiy faoliyat mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Pedagogik faoliyatga bog'liq muloqot talabalarga zamon talablari asosida ta'lif berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida shakllanadi. Bunda o'qituvchi va talabalar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib, uning mohiyati o'zaro axborot almashishda namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** bilim, muomala, muloqot, nutq, texnika, ta'lif, ko'nikma, faoliyat, kasbiy mahorat, malaka, tahsil oluvchi, kompetensiya, qonuniyat, maqsad, natija.

## В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ ОФИЦЕРА-ИНСТРУКТОРА КУЛЬТУРА СДЕЛОК И ОБЩЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

### АННОТАЦИЯ

Профессионально-педагогический диалог как система взаимного сотрудничества сотрудника-преподавателя и обучающихся, основным содержанием деятельности которого является взаимный информационный обмен, знакомство с человеком и воспитательное воздействие. Общение, связанное с педагогической деятельностью, формируется как средство решения задач обучения студентов, исходя из требований времени, как система социально-педагогического обеспечения образовательного процесса. Оно означает компетентность, метод и систему взаимодействия преподавателя и студенческого коллектива, а его суть проявляется во взаимном обмене информацией.

**Ключевые слова:** знание, поведение, общение, речь, техника, образование, умение, деятельность, профессиональное мастерство, квалификация, обучающийся, компетентность, законность, цель, результат.

## IN THE PROCESS OF EDUCATION OF THE OFFICER-INSTRUCTOR CULTURE OF TRANSACTION AND COMMUNICATION IN ACTIVITY

## ABSTRACT

Professional pedagogical dialogue as a system of mutual cooperation between the officer-teacher and students, the main content of the activity is mutual information exchange, getting to know the person, and educational influence. Communication related to pedagogical activity is formed as a means of solving the tasks of teaching students based on the requirements of the time, as a system of socio-pedagogical provision of educational processes. It means the competence, method and system of interaction between the teacher and the student team, and its essence is manifested in mutual information exchange.

**Key words:** knowledge, behavior, communication, speech, technique, education, skill, activity, professional skill, qualification, student, competence, legality, goal, result.

## KIRISH

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, talabaning shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat har-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon yaratadi. Bu esa shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarnigina qayd qilish imkonini berib qolmaydi. Pedagog talabalar bilan muomala qilar ekan, juda kichik detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmaydi, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu xususiyat shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlama ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish yo'lini beradi.

Pedagogik jarayonning borligi ofitser-o'qituvchiga munosabatni ijodiy hissiyotlar asnosida tashkil etishga, talabalar bilan psixologik muloqot o'rnatishga imkon beradi. Ofitser-o'qituvchi talabalarga biron-bir narsani o'rgata olishi uchun ular bilan munosabatga bo'lishi lozim. Munosabat shaxslar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi. Bunday axborot ayriboshlanishi munosbatning kommunikativ jihatni sifatida ta'riflanishi mumkin.

## ASOSIY QISM


Pedagogik muloqotda ustozning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. pedagogning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, talabalarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar bo'ladi.

Bu mezonlar jamiyat davlat o‘qituvchiga, ta’lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo‘yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

Pedagogik jarayonda muomala odobi ofitser-o‘qituvchining faoliyatida paydo bo‘ladi. O‘qituvchilik faoliyatiga qo‘yiladigan axloqiy talablar, o‘z navbatida. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy- ma’naviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo‘yayotgan vazifalarga bog‘liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti- harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta’lim-tarbiya maqsadi, vazifalari usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo‘ladi[1].

Pedagogik muloqotning tuzilishi juda ham murakkabdir. U pedagogik faoliyatda subyekt-obyekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Subyekt-obyekt munosabatlari pedagog o‘zining professional burchini bajarayotganida talabalar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o‘zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, yakdillik, o‘zaro g‘amxo‘rlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini e’zozlash kabilarda namoyon bo‘ladi. Ular o‘qituvchining pedagogik faoliyatda boshqalar bilan muomalasining xarakterini baholashga xizmat qiladi. O‘zaro ta’sirlar o‘quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Pedagogik muloqot madaniyati - pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbati. Pedagog faoliyatida pedagogik muloqotning ma’lum yo‘nalishlari aks etadi[2]. Ya’ni (1-rasm):



**1-rasm. Pedagogik muloqot yo‘nalishlari**

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli pedagogik muloqotni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yorining buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish oshadi.

Pedagogik muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchum imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, mhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlami inobatga oigan holda faoliyatni tashkil etadi. Pedagogik muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi ta'lim jarayoni ishtirokchilaiining o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi<sup>1</sup>. Pedagogik va talabalar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog ta'lim oluvchilarning eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi. Pedagogik muloqot chog'ida talabalar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldilariga hayotiy maqsadlami qo'ygan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Movarounnahrda notiqlik san'ati voizlik deb atalgan. Voizlik, ya'ni va'zzonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosini anglatgan. "Va'z" so'zi arab tilidan pand-nasihat ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb atalgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, qadimgi Sharqda hukmdorlar ushbu san'at namoyondalari xizmatini yuksak darajada qadrlaganlar. IX asrdan boshlab, davlat

<sup>1</sup> Tolipov O', Ro'ziyeva D., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti. Toshkent 2019-yil. 249-bet.

hukmdorlari notiqlik bilan bog‘liq barcha tadbirlarni maxsus tayyorgarlikka ega so‘z ustalariga yuklab, ularni “voizlar” deb ataganlar. Markaziy Osiyoda XII asrdan boshlab voizlik san’ati nazariyasi va amaliyotini targ‘ib qiluvchi ko‘plab ilmiy va uslubiy risolalar yozilgar Jumladan, allomalar Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, Unsun Maoliy Kaykovus “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig‘ Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”, “Nazmul-javohir”, Husayn Voiz Koshifiy “Dah majlis”, “Mahzan ul-insho”, Ali Yazdiy “Zafarnoma, Xondamir “Makorim ul-axloq”, Voiz Samarcandiy “Ravozat ul-voizin, Muhammad Rafiq Voiz “Avbob ul-jinon”, Quraysh Saidiy “Anis ul voizin” kabi o‘zlarining asarlari bilan “voiz”lik san’ati xazinasiga munosib hissa qo‘sghanlar<sup>1</sup>.

Muloqot madaniyati muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalikdir.

### Pedagogik muloqot uslublari

**Avtoritar uslub** - pedagogik muloqotda pedagogning mutloq ustunligini ifodalovchi uslub bo‘lib, unga ko‘ra talabalarning barcha turdagи faoliyatlarining tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag‘batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko‘rsatma, yo’llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko‘rish orqali talabalarga ta’sirlanadi.

**Demokratik uslub** - pedagogik muloqotda pedagog va talabalarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub. Unga ko‘ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlami tashkillashtirishda har bir talabarning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha talabalarning ishtiroklari ta’milanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo’llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi.

**Liberal uslub** - pedagogik muloqotdagi e’tiborsizlikni ifodalovchi uslub. U pedagog va talaba munosabatlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta’minlaydigan uslub sifatida ham e’tirof qilinadi. Unga ko‘ra ish yuritadigan pedagog pedagogik jarayonlarda talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga e’tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, shuningdek, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to‘g‘ri baholab, jazolash zarur bo‘lgan vaziyatlarda

<sup>1</sup> Xoliqov A Pedagogik mahorat. Darslik. “Iqtisod-Moliya” nashriyoti Toshkent 2011-yil. 179-bet.

ham indamaslikni odat qiladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi.

## MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Ofitser-o'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo'lgan barcha ijobiy natijalari uning o'quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to'g'ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi so'z san'atining cheksiz qudrati asosida talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, har bir mashg'ulotni samarali tashkil etib olib boradi, talabalar bilan so'zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o'rinni foydanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar bilar qizg'in muloqotni amalga oshiradi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida ofitser-o'qituvchi tanlagan vositalar ta'lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o'lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi<sup>1</sup>:

- birinchidan. Ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;

- ikkinchidan. Ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy - psixologik tizimning bir maromda ta'minlashi;

- uchinchidan. Ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

- to'rtinchidan. Talabalarни mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish. yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;

- beshinchidan. Barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Shunday qilib, kishflik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo'yilgan ilk davrlardanoq talabaning ta'lim va tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qo'yila boshlagan. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat asoslari bo'lajak mutaxassislarni ta'lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega bo'lishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini

<sup>1</sup> Xoliqu A Pedagogik mahorat. Darslik. "Iqtisod-Moliya" nashriyoti Toshkent 2011-yil. 126-bet.

ta'minlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va talabaning o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Yo'ldoshev O'.J., Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2017 y. 330-bet.
2. Tolipov O', Ro'ziyeva D., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti. Toshkent 2019-yil.
3. Xoliqov A Pedagogik mahorat. Darslik. "Iqtisod-Moliya" nashriyoti Toshkent 2011-yil.